TOSHKENT VILOYATI BO ‘STONLIQ TUMAN HOKIMI
Q A R O R I

2022 - yil 30 - sentabr 231-10-136-Q/22 Bo‘stonliq tuman hokimligi

Bo‘stonliq tumanidagi qabristonlarda dafn etish xizmatlarini ko‘rsatish bo‘yicha tariflar miqdorini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunning 6, 25-moddalari, “Dafn etish va dafn ishi to‘g‘risida”gi Qonunning 15-moddasi, Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 4-apreldagi “Dafn etish va dafn ishi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunini amalga oshirish chora-tadbirlari xaqida”gi 101-son qaroriga asosan tuman hududidagi dafn etish joylarini saqlash va obodonlashtirish maqsadida, **qaror qilaman:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 4-apreldagi “Dafn etish va dafn ishi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunini amalga oshirish chora-tadbirlari haqida”gi 101-sonli qarori rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Tuman hokimining qurilish, kommunikatsiyalarni rivojlantirish, ekologiya va ko‘kalamzorlashtirish masalalari bo‘yicha o‘rinbosari, tuman adliya bo‘limi hamda tuman obodonlashtirish boshqarmasi (J.Ergashev) bilan birgalikda bir oy muddatda tumandagi qabristonlarda dafn etish xizmatlarini ko‘rsatish bo‘yicha tariflarlar miqdorini ishlab chiqsin va tasdiqlash uchun tuman hokimiga kiritsin.

3. Tuman mahalla va nuroniylarni qo‘llab-quvvatlash bo‘limi (L.Tadjibayev), tuman sanitariya-epidemiologok osoyishtalik va jamoat salomatligi bo‘limi (O.Xoshimova), tuman obodonlashtirish boshqarmasi (J.Ergashev):

- fuqarolarni o‘zini-o‘zi boshqarish organlari bilan hamkorlikda

qabristonlarni zarur darajada saqlash va obonlashtirish hamda hasharlar, xotirlash kunlari va boshqa tadbirlarni tashkil etish;

- sanitariya qoidalari va me’yorlariga qat’iyan rioya etgan holda qabristonlarni ochish va yopishda qonuniylikni ta’minlash, qabristonlar tashkil etish uchun yer uchastkasini ajratishni yer to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlariga muvofiq amalga oshirilishini ta’minlasin.

4. Tuman obodonlashtirish boshqarmasi (J.Ergashev) hamda qabristonlarning ma00muriyatlari:

- xizmatlar uchun qat’iyan belgilangan tariflar bo‘yicha hisob-kitob qilgan holda fuqarolarning qabristonda ko‘rsatiladigan xizmatlarga doir buyurtmalarni o‘z vaqtida va sifatli bajarilishini;

- qabristonlarda byustlar, xaykaltaroshlik yodgorliklari yoki alohida arxitektura shakliga ega bo‘lgan inshootlarni o‘rnatish, obyektlarni saqlash va ulardan foydalanish qoidalariga rioya etilishini ta’minlasin.

5. Mazkur qaror “Bo‘stonliq ovozi” gazetasida rasman e’lon qilinsin va tuman hokimligi rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin, ushbu qaror rasman e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

6. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining qurilish, kommunikatsiyalarni rivojlantirish, ekologiya va ko‘kalamzorlashtirish masalalari bo‘yicha o‘rinbosari zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi **J.Axmedov**